

MAVZU. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV GURUHLARNI TASHKIL ETISH

1. [B – 1 ball]. Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi nimadan iborat?

A) Faqat alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun alohida guruhlar yaratish;

B) Barcha bolalarga teng imkoniyat yaratish va moslashtirilgan ta'lim muhitini tashkil etish;

C) Sog'lom bolalarga yuqori sifatli ta'lim berish;

D) Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni alohida muassasalarga yo'naltirish.

2. [B – 1 ball]. Maktabgacha ta'limda inklyuziv guruhga bolani qabul qilish qaysi hujjat asosida amalga oshiriladi?

A) Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori buyrug'i;

B) Pedagoglar kengashi qarori;

C) Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi;

D) Tibbiyot muassasasi arizasi

3. [B – 1 ball]. 3–7 yoshli inklyuziv guruhda bir guruhga maksimal necha nafar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar joylashtiriladi?

A) 5 nafar;

B) 4 nafar;

C) 3 nafar;

D) 2 nafar.

To'g'ri javob: C

4. [B – 1 ball]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 13-maydagi VM 391-sonli qaroriga ko'ra 3 yoshdan katta bolalar uchun inklyuziv guruhda jami bolalar soni qancha bo'lishi mumkin?

- A) 20 nafar;
- B) 15 nafar;
- C) 25 nafar;
- D) 30 nafar.

5. [Q – 3 ball]. Maktabgacha ta'lim tashkilotida defektologning asosiy vazifalaridan biri qaysi?

- A) MTTda ovqatlanish jadvalini nazorat qilish;
- B) Bolalar bilan korreksion-pedagogik mashg'ulotlar o'tkazish;
- C) Guruhlar gigiyenasini ta'minlash;
- D) Faoliyat rejasini faqat direktor topshirig'iga binoan tuzish.